

NODIRABEGIM ASARLARINING TILI VA BADIY VOSITALARI



Nurutdinova Malikaxon Sharabovna

O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi

Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi

malika122yun@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maolqda mumtoz she'riyatimizda badiiy tafakkur yuksak sanalishi haqida so'z boradi. Go'zal tabiat, ijtimoiy hayot manzaralari, ezgulik va qabohat, halolik va nopoklik, vafo va xiyonat singari minglab fazilat va illatlar, murakkab insoniy kechinmalarni ifodalagan shoiramiz Nodirabegim asarlarida mavzulari rang-barangligi, g'oyaviy boyligi bilangina emas, balki badiiy tili va uslubi bilan ham ajralib turar edi. Jumladan Nodirabegimning ijodi bilan tanishar ekansiz uning boshidan kechirgan kechirmishlarini beixtiyor g'azallarida, she'rlarida, tuzgan devonida ko'rasiz. Chunki shoira o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos uslubi va tili bor. Nodirabegim yashagan davrda xotin-qizlarning qismati juda og'ir va achinarli bo'lgan. Sharq adabiyotida o'zining qobiliyati va donishmandligi bilan elga tanilgan Nodirabegim kambag'al beva-bechora kishilar ahvoliga achinadi. Ayollarga nisbatan himmatsiz va shafqatsiz bo'lgan davlatmandlardan nafratlanadi. U barcha kechinmalarini asarlarida o'z tili va uslubida aks ettiradi.

Kalit so'zlar: mumtoz, muashshar, hol, jamol, hilol, dol, visol, xayol, kamol kiprik hassasi, himmat, shafqat, lirik qahramon.

Аннотация: В этом стихотворении говорится о том, что в нашей классической поэзии высоко ценится художественное мышление. Произведения нашего поэта Надирабегима, выражающие тысячи добродетелей и пороков, сложные человеческие переживания, такие как прекрасная природа, сцены общественной жизни, добро и красота, честность и нечистота, верность и предательство, не только красочны и богаты идеями, но и художественный язык

и стиль. Например, когда вы познакомитесь с творчеством Надирабегима, вы увидите прощение, которое она невольно пережила в своих газелях, стихах, диване, которых она сочинила. Потому что поэтесса имеет свой стиль и язык в узбекской классической литературе. Во времена, когда жила Надирабегим, судьба женщины была очень тяжелой и печальной. Известный своими способностями и мудростью в литературе Востока, Надирабегим жалеет бедных вдов, ненавидит государственных деятелей, небрежно и жестоко обращающихся с женщинами, и отражает все свои переживания в своих произведениях своим языком и стилем.

Ключевые слова: классика, муашшар, красота, халаль, наклонятся, визал, мечта, совершенный реснички стержень, усилие, сострадание, лирический герой.

Annotation: In this poem, it is said that artistic thinking is highly regarded in our classical poetry. Our poet Nadirabegim's works, which express thousands of virtues and vices, complex human experiences, such as beautiful nature, scenes of social life, goodness and beauty, integrity and impurity, loyalty and betrayal, are not only colorful and rich in ideas, but also artistic language and style. was also distinguished by For example, when you get acquainted with Nodirabegim's work, you will see the forgiveness he went through involuntarily in his ghazals, poems, and divan he composed. Because the poetess has her own style and language in Uzbek classical literature. During the time when Nadirabegim lived, the fate of women was very difficult and sad. Known for his ability and wisdom in the literature of the East, Nodirabegim feels sorry for the poor widows. He hates the statesmen who are careless and cruel to women. He reflects all his experiences in his works in his own language and style.

Key words: classic, muashshar, hal, beauty, hilal, bend over, visal, dream, perfect eyelash rod, effort, compassion, lyrical hero.

Mumtoz adabiyotimizning taraqqiy etishida shoir va shoiralarimizning tasvir usullari, asarlarning nafosati va nazokatini anglash uchun soʻz sanʼatini, tabiatini uning badiiy usulini, sheʼriy sanʼat turlarini, usulini va tilini bilish kerak. Mumtoz sheʼriyatimizda badiiy tafakkur yuksak sanaladi. Goʻzal tabiat, ijtimoiy hayot manzaralari, ezgulik va qabohat, halolik va nopoklik, vafo va xiyonat singari minglab fazilat va illatlar, murakkab insoniy kechinmalarni ifodalagan shoirimiz Nodirabegim asarlarida mavzulari rang-barangligi, gʻoyaviy boyligi bilangina emas, balki badiiy tili



va uslubi bilan ham ajralib turar edi. Shoira o‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos uslubga ega. Nodirabegim yashagan davrda xotin-qizlarning qismati juda og‘ir va achinarli bo‘lgan. Ular jismoniy, ruhiy xo‘rlanar, sevis va sevilishga haqlari yo‘q edi. Nodirabegimning asarlarida asosiy uslublaridan biri muhabbatni kuylash uni tarannum etish. Buyuk Alisher Navoiy ijodida ham xotin-qizlar go‘zalligi, fazilatlarini, ko‘rsatgan qahramonliklari va vafoli yor timsollari mohirona kuylanadi. Nodirabegim Navoiy, Bedil, Fuzuliy kabi allomalarimizni uslublarini davom ettiradi. Masalan Navoiyni fikrlarini davom ettiradi. Nodira ham Navoiydek yor vasliga yetishish ishtiyoqini zo‘r extiros bilan kuylaydi. Bir muxammasida shunday deydi:

Zarar qilmas muhabbat ahliga ag‘yorni(ng) ta’ni, [3.24-bet]

Erur badxohlarni(ng) guftgo‘yi barcha bema’ni,
Bukun, ey Nodira, boshdin qo‘yib toji murassa’ni,
Makon gulxan kulin Navoiy telbadek ya’ni,

Junun tarojidin oxir qaro tufroqqa o‘lturdim. [2. 42-bet]

Misrada jonkuyarlik va muhabbat mavzusini kuyladi. Muhabbat ikki yorti bir butunlik, bir-birlari suhbatidan zavqlanishi, suhbatini ziynatidan bezanishi, uning lirikasida asosiy motivlardan yana birida muhabbat, ayriliq, xijron, xasratni ko‘ramiz.

Shoira mumtoz adabiyotimizda kam bo‘lsada uchraydigan, har bandi o‘n misradan tashkil topuvchi lirik she‘r-muashshar ham yaratgan. Bunday asarlarda birinchi bandidagi o‘nta misra qofiyalanib, keying bandlari mustaqil qofiyaga ega bo‘ladi.

Oxirgi 9-10 misralar birinchi band bilan qofiyadosh bo‘ladi. Nodirabegimning

“ Firoqnoma” muashshari shunday bitilgan.

Ohkim behad menga javr-u jafo aylar falak,
Furqat ichra qismatim dard-u balo aylar falak,
Yordin ayro manga ko‘p mojaro aylar falak,
G‘am bila guldek yuzumni qahrabo aylar falak,
Bevafodur, oqibat kimga vafo aylar falak,
Hasrat-u dard-u alamga mubtalo aylar falak,
Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni be barg-u navo aylar falak,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortiq, mehribon dildoridin ayrilmasun.

Yordin ayru ko‘nguldur tiyrayu oshufta hol,

Oftobim necha kun bo'ldiki, ko'rguzmas jamol,
Furqat ichra badri tobon za'fidin bo'ldi hilol,
G'am yuki oxir alifdek qomatimni qildi dol,
Ey xush, ul soatki erdim mahrami bazmi visol,
Dardi hijron ibtilosin aylamas erdim xayol,
Ul zamon erdi bu nuqsonlar menga ayni kamol,
Boqdi ul sarvi ravon, men qolmisham behush-u lol,
Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortiq, mehribon dildoridin ayrilmasun.[4. 225-bet]

Muashshar janrining o'ziga xos uslubi, qofiya va radif tuzilishi, vazn qoidalariga amal qilishi shoiraning uslubini mahorat belgisidir. Misralarda keltirilgan **javr-u jafu, dard-u balo, mojaru, qahrabu, vafo, muftalo, judo, navo** so'zlari orqali shoira tuyg'ularining samimiy ifodasi. Keyingi qatordagi misralarda **hol, jamol, hilol, dol, visol, xayol, kamol** qofiyadosh so'zlar ichida Nodirabegimning ichki kechinmalari, istak xohishlari, beg'ubor dunyosi o'z aksini topgan. Taqdirning ayovsiz sinovlari majoziy ma'noda alp qomatini dol kabi egib qoyganidan noliydi. Tushkunlikka tushadi.

Tojikcha:

Du olam fitnai sho'ri qiyomatro tamosho kun,
Ki chashmi kofari bemorash az mijgon aso dorad.

#

Nayorad darn azar faqram bisoti sufu atlasro,
Ba pahlo' farshi deboye zi naqshi bur'yo dorad.

Mazmuni:

Ikki olam fitnasi, qiyomat g'avg'osini tamosha qilginki,
Uning bemor kofir ko'zlarining kiprikdan hassasi bor.

#

Kamtarligim jun va atlas matolarini nazar pisand
qilmaydi, bo'yraning³ naqshidan harir (yupqa) libosim bor.

³ Bo'yra-tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shama.

Tojikcha:

Zi dunyo barguzashtan chashm bar dunyo buvad bastan,
Sare aftad ba pushti kas, nigohe bar qafo dorad.

Mazmuni:

Dunyodan o'tmoq, dunyoga ko'z tutmoqdir,
Orqasiga it tushgan kishi, ixtiyorsiz orqaga qaraydi.[2,107-bet]

Bu misralarda tushkunlikka tushgan ayolning ikki olamda ham tuhmat g'avg'osiga qolgani, uni qiyomatda qay holatga tushishi, kofirning kasal ko'zlaridagi kiprik hassalari turarmikan, deb xasrat qiladi. Umidsiz holatidagi o'y-fikrlarini ifoda etadi. U kishilarga o'git beradi, kamtarlik, rostlik, halollik, mehnatsevarlik, to'g'rilik xislatlarini targ'ib qiladi. Deydi:

Kamtarligim jun va atlas matolarini nazar pisand
qilmaydi, bo'yraning³ naqshidan harir (yupqa) libosim bor.

Quyidagi misralarda shoira ibo-xayo borasida kamtarlik qilishini. Jun va atlas matolar orqali imoni mustahkamligiga ishora beradi. Bo'yra Nodiraning xalqqa yaqinligini bildiradi, Kambag'al beva-bechora kishilar ahvoliga achinadi. Ayollarga nisbatan himmatsiz va shafqatsiz bo'lgan davlatmandlardan nafratlanadi. Nodirabegim asarlarini uslubi va tilining badiiyligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning tili soddaligi, xalqchilligi bilan ajralib turadi.

Tekinxo'r, ta'magir, yolg'onchilik va aldovni qoralaydi. Xalqni orzu-umidlarini, dard-u alamlarini qalban xis qilishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek sovet adabiyoti tarixi: Un-t-lar va ped. Ins-tlarining filologiya fak. studentlari uchun darslik / A. Kattabekov, S. Mamajonov, B. Nazarov va boshqalar; [Mas'ul muharir A. Sharopov], -T.: O'qituvchi, 1989-464 b.
2. Nodira-Komila II-kitobi Toshkent-2004-yil, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi, Toshkent-2004-yil, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004 yil.-208 bet.
3. Lapasov Javqon. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati: O'rta maktablar uchun.-T.: O'qituvchi, 1994.-272bet. 83.3 O'zuya2.
4. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik/Taqrizchilar: M. Qodirov, U. Normatov.-T: "Sharq", 2014.-368b.
5. internet sayt: <https://savodxon.uz/izoh?>